

MARKAZIY SUG'D ILK O'RTA ASRLAR DAVRI QIMMATBAHO TOSHLARGA ISHLOV BERISH SAN'ATI XUSUSIDA

*Alimov Navro'z G'anisher o'gli, Y. G'ulomov nomidagi
Samarqand Arxeologiya instituti tayanch doktoranti*

ON THE ART OF PRECIOUS STONE PROCESSING IN EARLY MEDIEVAL CENTRAL SOGD

*Alimov Navruz G'anisher ogli, PhD student at the
Y. Gulyamov Samarkand Institute of Archaeology*

ОБ ИСКУССТВЕ ОБРАБОТКИ ДРАГОЦЕННЫХ КАМНЕЙ В РАННЕСРЕДНЕВЕКОВОМ ЦЕНТРАЛЬНОМ СУГДЕ

*Алимов Навруз Ганишерович, базовый докторант
Самаркандском археологическом институте
имени Я. Гулямова*



[https://orcid.org/
0009-0001-0069-3914](https://orcid.org/0009-0001-0069-3914)
e-mail:
alimovnavoz95@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ilk o'rta asrlarda Markaziy Sug'd hududida taraqqiy etgan qimmatbaho toshlarga ishlov berish san'ati, Samarqand yaqinida joylashgan Kofirqal'a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qayd etilgan almandin toshidan ishlangan kameya asosida tahlil etilgan. Tadqiqot davomida kameyaning ishlanish texnologiyasi, almandin toshining xususiyatlari va konlari haqida ma'lumotlar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Sug'd, Kofirqal'a, kameya, almandin, hunarmandchilik.

Abstract: The article analyzes the art of processing precious stones that developed in the territory of Central Sogd during the Early Middle Ages, based on a cameo made of almandine discovered during archaeological excavations at the Kafir Kala site near Samarkand. The study provides information about the manufacturing technology of the cameo, the physical properties of almandine, and the locations of its deposits.

Key words: Central Sogd, Kafir Kala, cameo, almandine, craftsmanship.

Аннотация: В статье рассматривается искусство обработки драгоценных камней, развивавшееся на территории Центрального Согда в раннесредневековый период, на основе камеи из альмандина, выявленной в результате археологических исследований памятника Кафиркала, расположенного вблизи Самарканда. В исследовании приведены сведения о технологии изготовления камеи, свойствах альмандина и месторождениях данного минерала.

Ключевые слова: Центральный Согд, Кафиркала, камея, альмандин, ремесло.

KIRISH. Tarixiy manbalar va arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha ilk o'rta asrlarda Sug'dda savdo-sotiq, musiqa madaniyati, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Ayniqsa, Sug'dda hunarmandchilikning kulolchilik, temirchilik, zargarlik, to'qimachilik kabi yo'nalishlari yetakchi sohalardan biri bo'lib, ular nafaqat mahalliy

bozorlarga, balki Ipak yo'li orqali xorijga ham eksport qilingan. So'nggi yillarda Sug'd shaharlarida, jumladan, Samarqand yaqinida joylashgan Kofirqal'a yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida hunarmandchilikning qimmatbaho toshlarga ishlov berish san'ati yo'nalishi borasida muhim ma'lumotlar qo'lga kiritilgan.

Samarqand hukmdorlarning shahar tashqarisidagi qarorgohi bo'lgan Kofirqal'a (Rivdad) yodgorligi ko'hna Afrosiyobdan 18 km janubda, Darg'om kanalining o'ng sohilida joylashgan [3b.93]. Yodgorlik ilk o'rta asrlar davri shaharlariga xos bo'lgan ark, shahriston va rabod qismlaridan iborat [8b.73]. Quyida tavsifi bayon etiladigan kameya yodgorlik arkidagi 15-16-xonadan topib o'rganildi. Shu bilan ushbu qatlamdan Sug'd hukmdorlari Okkurt Chamuk (626-655), Tarxun (700-710), G'urak (712-738) [2,p.5-6] tomonidan zarb qilingan tangalarning topilishi ushbu kameyani VII –VIII asrlarga oid deb aniq sanalash imkoniyatini beradi.

USULLAR. Maqolada tarixiy, qiyosiy tasniflash, ikonografik tahlil, xronologik davrlashtirish, yozma manbalar bilan solishtirish kabi usullardan foydalanildi.

NATIJALAR. Kofirqal'a yodgorligida almandin toshidan ishlangan **kameya** (lotincha: *cammaeus* - qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshdan o'yib tayyorlangan relyef tasvirli zargarlik buyumi) aniqlangan bo'lib, u rejasida to'rtburchak shaklga o'xshash, lekin burchaklari silliqlangan. Orqa tomoni tekis, old tomoni esa o'ymakorlik bilan ishlangan va unda erkak personajining boshi tasvirlangan. Uning yuzi cho'zilgan-ovalsimon shaklda, peshonasi past, ko'zlari katta, oval shaklida va ko'z qopqog'ini aniq ko'rsatuvchi valiklarga ega. Ko'z qorachig'i esa oz miqdordagi yumaloq chuqurchalar bilan aniq qilib tasvirlangan. Qoshlar yarim aylana shaklida berilgan. Burun to'g'ri va kichik qilib, yuzga mos ravishda ishlangan. Og'iz kichik, chiroyli shakllangan lablar bilan yuzdan ajralib turadi. Yuzning pastki qismida kichik, o'rtacha shakldagi jag' bor. Peshona va boshning bir qismini yashirgan qisqa chiziqlarda sochlar tasvirlangan, bu Sog'diylar uchun tipik bo'lgan soch turmagini («kare» shaklida) ko'rsatadi. Boshning pastki qismining ostida yarim oval shaklida bo'yin ham ko'rsatilgan. O'lchamlari: balandligi 14 mm, yuqori qismida kengligi 9 mm, pastki qismida kengligi 5 mm. Eng qalin joyi 7 mm ga teng (1-rasm).

MUNOZARA. Kameya barcha simmetriya qonunlariga muvofiq, badiiy jihatdan yuksak darajada yasalgan. U qimmatbaho metallardan yasalgan uzuk, yoki katta zargarlik buyumiga, masalan, diadema yoki pektoral uchun bezak

(ko'z) bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkin. Ishlanish texnikasi qadimgi zargarlik san'ati namunalari eslatadi, ammo personajning soch turmagi ilk o'rta asrlarda Sug'ddagi devoriy



1-rasm. Almandin toshidan ishlangan kameya (M.Sultonova chizmasi).

suratlar, terrokatalar, Kofirqal'a yog'och pannosidagi tasvirlarda uchraydi. Shu sababli kameyani ilk o'rta asrlarga tegishli deb hisoblash mumkin. Chunki, bunday soch turmagi Kofirqal'a yog'och pannosidagi personajlarning soch turmaklariga juda o'xshash. Pannodagi soch turmaklarni tadqiq etgan M. Sultonova bunday soch turmakning ikki guruhi (silliqlik yelkagacha tushuvchi kare usuli va yelkagacha tushuvchi an'anaviy kare usuli)ni qayd etgan [11,c.44-45]. Shu bilan birga "kare" usulidagi soch turmaklar Sug'd terrakatalarida ham uchraydi [11,рис.6; 7,табл.25,28]. Kofirqal'a personajiga analogiya sifatida Yuqori Zarafshon vohasida aniqlangan yog'och haykalni ko'rsatish mumkin. Haykal yog'ochdan ishlangan bo'lib, balandligi 1 metr [15,c.159]. Haykalning yuzlari, kichik og'zi, iyagi, ayniqsa to'liqlik sochlari Kofirqal'a personajiga juda o'xshash. Tadqiqotchi Y. Yakubov ushbu haykalchani Sug'd ilohi sifatida tariflagan va buni Sug'd haykaltaroshlik san'atida faqat xudolar tasvirlanishi, inson tasviri deyarli uchramasligi bilan qo'shimcha izohlagan [14,c.147]. Bundan tashqari to'liqlik sochlar bilan tasvirlangan metallardan ishlangan haykalchalar Qal'ayi Nofin (Tojikiston) [10,рис.6] va Jartepa II [4,c.87] yodgorliklarida ham qayd etilgan bo'lib, uy ilohalari sifatida tariflagan. Personaj burnining qoshlar bilan qo'shilib ketgan tomoni Surxondaryo viloyati Kampirtepa yodgorligi aniqlangan haykal personajiga juda o'xshash [6,рис.291]. Ehtimol, Kofirqal'a personaji ham Sug'd ilohining tasviri bo'lishi mumkin.

Kameya qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlarga relyefli tarzda tasvirni o'yib ishlash san'ati bo'lib, Rim va Yunonistonda mil. avv. III asrda paydo bo'lgan. Eron Sosoniylarining Rim imperiyasi bilan yaqin madaniy aloqalari tufayli ushbu san'at turi milodiy III - IV asrlarda Eronga kirib keladi. Sosoniylar hukmdori Shopur I va Rim imperatori Valerian o'rtasidagi kurash tasviri [17,p.288], hamda sosoniy padshohi Varahran II ning Nandi buqasi ¹ ni bo'ysundirayotgan holati tasviri [18,fig.1] ilk o'rta asrlar sosoniylar davri kameya san'atining yorqin namunasidir.

¹ Nandi buqasi – hinduizmida xudo Shivaning muqaddas buqasi.

Almandin granatlar guruhiga mansub meneral bo'lib, qattiqlik darajasi moos shikalasi bo'yicha 7-7.5. Kimyoviy tarkibi Fe₃, Al₂, SiO₄ bo'lib, oz miqdorda Mg (magniy) va Mn (marganis) elementlari ham uchraydi. U shaffof, yarim shaffof bo'lib, rangi qizil, binafsha-qizil, jigarrang-qizil. Rangini Fe (temir) elementlarining turli qo'shimchalari belgilaydi. U tabiatda turli qotishmalar, tog' jinslari tarkibida uchraydi, uning hajmi nisbatan kichik, bir-necha millimetrdan 4 sm gacha bo'lishi mumkin [12,c.47-48]. Nomi kichik Osiyoda joylashgan Alaband hududidan olingan bo'lib, bu yerda qadimdan granatlar qazib olinib, ishlov berilgan. Birinchi marta Agrikola tomonidan 1546-yilda tasvirlangan va shuningdek "karbunkul" sinonimi bilan ham tanilgan [9,c.51-53]. Milodiy I asrda yashagan Pliniy shunday yozadi "qizil toshlar ichida eng chiroyli va nafisi karbunkuldir, chunki u olovga o'xshaydi" [12,c.47]. Almandin kristallari qadim zamonlardan buyon marjonlar va turli bezaklarda – uzuklar, taqinchoqlar va kulonlarni bezashda ishlatilgan. Al-Beruniyning "Mineralogiya" asarida bu tosh "bidjazi" deb nomlangan. Ushbu toshlarning yaxshisi Seylon granati hisoblanib, buning sababi ularning cho'g'dek quyuq qizil rangga egaligi aytiladi. Uning eng qimmatbahosi qush parlarini kuchli tortadiganidir deb tarflanadi [1,b.110]. O'rta Osiyoda eng qadimgi almandin muhr ellin davrida foydalanilgan bo'lib, Afg'onistondagi Oyxonim yodgorligida aniqlangan [16,p.14].

Yevropada Alp tog'lari, Afrikada Namibiya, Shri-Lanka, Hindiston (Gujarat), Ural tog'lari [13,c.56], shuningdek O'zbekiston hududida Sulton Uvays, Langar, Turlangli konlarida almandin mavjudligi qayd etilgan [19]. Al Beruniy esa o'rta asrlarda almandin toshi Badaxshondan Shikinonga boradigan yoldagi konlarda mavjudligini yozib qoldirgan [1,b.111].

Almandinning tanlanishi tasodifiy emas, chunki bu toshning sehrli xususiyatlari ko'plab madaniyatlar tomonidan qadrlangan. Masalan, ko'z tegishidan himoya qilishi, ayollarga tug'ruqda yordam berishi, charchoqni kamaytirish va kuch-quvvat baxsh etishi (balki uning qizil rangi — qon va olov rangi bilan bog'liq bo'lganligi uchun), o'z kuchiga ishonch hosil qilishga yordam beradi deb

qaralgan. Shuningdek, qadimda bu toshni sayohatga olib chiqish, yo'ldagi turli noxush hodisalar, moddiy yo'qotishlar, kasalliklar va ajralishlarga qarshi yordam beradi deb ishonilgan. Shu bilan birga almandinni g'azabni yengillashtirish, qayg'u va qo'rquvni yo'qotish xususiyatiga ega deb qaralgan. Qadimgi Gretsiyada almandin sodiqlik va ishq ramzi, quvonch, hatto befarqlik ramzi hisoblangan [5,c.60].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda ilk o'rta asrlar Sug'd hududida hunarmandchilikning turli tarmoqlari kulolchilik, zargarlik, misgarlik, teri ko'ndchilik, shishasozlik, yog'och o'ymakorligi, metallsozlik yuksak darajada rivojlanganligi yozma va arxeologik materiallar asosida isbotlangan. Hunarmandchilikning yuqoridagi tarmoqlari bilan bir qatorda qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarga ishlov berish hunarmandchiligi ham san'at darajasida rivojlanganligini ko'rish mumkin. Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va oddiy toshlardan usta hunarmandlar turli zargarlik va xo'jalik buyumlari tayyorlaganlar. Ushbu toshdan ishlangan hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat bizda, balki chet ellarda ham yuqori baholangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Райхон Беруний. Собрание сведений для познания драгоценностей (Минералогия) / пер. с араб. А. М. Беленицкого. СПб.: 2011. — 600 с.
2. Begmatov A., Berdimurodov A., Bogomolov G., Murakami Tomomi, Teramura Hirofumi, Uno Takao, and Usami Tomoyuki: New Discoveries from Kafir-kala: Coins, Sealings, and Wooden Carvings. 2020. (Electronic resource). — Access mode: <https://Academia.edu>.
3. Бердимуратов А.Э, Индиаминова Ш. А. Буюк ипак йўли: китъалар ва асрлар оша. – Самарқанд, 2017.
4. Бердимуратов А.Э, Самибоев М.К. Храм Джартеп. - Тошкент, 1999.
5. Гаврилова А. С., Шанина С.А., Елисеева Е.Л., Климова М.В., Климкина О.В., Демин И.О., Пугвакин О.В. Драгоценные камни и минералы. Популярная энциклопедия. Ростов на Дону, Владис, 2011. 208 с.

6. Караматов Х.С. Древние культы Центральной Азии. – Самарқанд-Ташкент: МИЦАИ, SMI-ASIA, 2017.
7. Мешкерис В.А. Коропластика Согда. Душанбе, 1977.
8. Сандибоев А. Н. Маймурғ илк ўрта асрларда. – Самарқанд, 2021
9. Солодова Ю.П., Андреев Э.Д., Гранадчикова Б.Г. Определитель ювелирных и поделочных камней. М., изд. Недра, 1989. 213 с.
10. Ставиский Б.Я. Работы Магианской группы в 1959 г. // Труды Института истории, археологии и этнографии им. А.Дониша, т.31. - Душанбе, 1961 (АРТ, вып. 7, 1959).
11. Султанова М.Н., Кубаев С.Ш. Прически раннесредневекового Согда (по материалам резного дерева с Кафиркалы) // Вестник археологии, антропологии и этнографии. № 3 (66) 2024. <http://ipdn.ru>.
12. Путолова Л. С. Самоцветы и цветные камни. – М., 1991.
13. Шуман В. Мир камня. Том 1. Горные породы и минералы. – М., 1986. 215 с.
14. Якубов Ю. Раянесредневековые сельские поселения горного Согда. (К проблеме становления феодализма). - Душанбе, 1988.
15. Якубов Ю.Я. Религии Центральной Азии и Азербайджана. Том II. Зороастризм и верования маздеистского круга. – Самарқанд: МИЦАИ, 2017. – 308 с.
16. Adams, N. 'The Garnet Millennium: The Role of Seal Stones in Garnet Studies' in C. Entwistle and N. Adams (eds) 'Gems of Heaven': Recent Research on Engraved Gemstones in Late Antiquity, AD 200-600, BM Research Publication 179, London, 2011.
17. Ritter Nils. Gemstones in pre-Islamic Persia: Social and Symbolic Meanings of Sasanian Seals. In: Gemstones in the first Millennium AD: Mines, Trade, Workshops and Symbolism. - Mainz., 2017.
18. Shayegan Rahim M. The Cameo of Warahrān II and the Kušano-Sasanians. Bulletin of the Asia Institute Volume 30. - Michigan., 2020.
19. www.geoportal-uz.org [Mineral resources – Uzbekistan Geoportal](#)